



Dilnoza ABDUVALIYEVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti doktoranti, PhD, dotsent
E-mail: a.dilnoza1981@gmail.com

F.f.d S.Zokirova taqrizi asosida

“NAHJ-UL FARODIS”DA KIYIM-KECHAK NOMLARI

Annotatsiya

Kiyim-kechak va u bilan bog'liq tushunchalarni ifoda etuvchi leksemalarni aniqlashni maqsad qilgan ushbu tadqiqot XIV asrning noyob yozma manbalaridan bo'lgan “Nahjul-Farodis”dagi kiyim-kechak va unga mansub tushunchalar nomlarini aniqlaydi. Maishiy turmush bilan bog'liq leksika xalqning tarixi, madaniyati va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas aloqador bo'lib, ularning ilmiy tahlili orqali eski turkiy til lug'at boyligi hamda so'z ma'nolaridagi o'zgarishlarni aniqlash mumkin. Mahmud ibn Ali qalamiga mansub “Nahjul-farodis” asarida maishiy hayotga oid, jumladan, kiyim-kechak nomlarini ifodalovchi ko'plab leksik birliklar qo'llangan. Ushbu atamalar insonlarning jamiyatdagi mavqeyi, turmush tarzi va madaniy darajasini aks ettiruvchi muhim til birliklari sifatida ahamiyatlidir. Maqolada bunday so'zlarning qo'llanilishiga misollar transkripsiyada keltirildi va ularning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Qadimgi turkiy til, Oltin O'rda, Xorazm yozma yodgorliklari, Mahmud ibn Ali, “Nahjul-Farodis”, kiyim nomlari.

НАЗВАНИЯ ОДЕЖДЫ В «НАХЖУЛ-ФАРОДИС»

Аннотация

В данном исследовании, направленном на выявление лексем, выражающих одежду и связанные с ней понятия, выявляются названия одежды и связанные с ней понятия в «Нахжул-фародис», уникальном письменном источнике XIV века. Лексика, связанная с повседневной жизнью, тесно связана с историей, культурой и общественной жизнью народа, и её научный анализ позволяет определить изменения в словарном составе и значениях слов в древнетюркском языке. В произведении «Нахжул-фародис» Махмуда ибн Али используется множество лексических единиц, связанных с повседневной жизнью, в том числе названия одежды. Эти термины важны как важные языковые единицы, отражающие положение, образ жизни и культурный уровень людей в обществе. В статье приводятся примеры использования таких слов в транскрипции и анализируются их лексико-семантические свойства.

Ключевые слова: Древнетюркский язык, Золотая Орда, хорезмийские письменные памятники, Махмуд ибн Али, «Нахжул-фародис», названия одежды.

NAMES OF CLOTHES IN “NAHJ-UL FARODIS”

Annotation

This study, which aims to identify lexemes expressing clothing and related concepts, identifies the names of clothing and related concepts in “Nahjul-Farodis”, a unique written source of the 14th century. The lexicon related to everyday life is closely related to the history, culture and social life of the people, and through their scientific analysis, it is possible to determine the changes in the vocabulary and meanings of words in the Old Turkic language. In the work “Nahjul-Farodis” by Mahmud ibn Ali, many lexical units related to everyday life, including the names of clothing, are used. These terms are important as important language units reflecting the position, lifestyle and cultural level of people in society. The article provides examples of the use of such words in transcription and analyzes their lexical and semantic properties.

Key words: Old Turkic language, Golden Horde literary environment, Khorezm written monuments, Mahmud ibn Ali, “Nahjul-Farodis”, names of clothing.

Kirish. XIII–XIV asrlar turkiy xalqlar va turkiy tillar taraqqiyoti tarixida alohida ahamiyat kasb etuvchi murakkab davrlardan biridir. Bu davrning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, madaniy hayoti va ma'naviy merosi o'z ifodasini yozma yodgorliklar hamda adabiy asarlarda topgan. Xususan, Markaziy Osiyo va Oltin O'rda hududida yaratilgan yozma manbalar til jihatidan xilma-xil bo'lib, ularning shakllanishida ikki asosiy omil muhim rol o'ynagan. Bir tomondan, bu asarlar o'zidan oldingi davrlarda shakllangan turkiy adabiy til an'analari davom ettirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning tarkibida shu hududlarda yashagan turkiy xalqlarning jonli til xususiyatlari keng o'rin olgan. Shu bois XIII–XIV asr turkiy adabiyoti til jihatidan murakkab qatlamli bo'lib, unda yozma an'analalar va og'zaki nutq unsurlarining o'zaro uyg'unligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Turkiy xalqlar qadimdan boy madaniyat va san'at sohibi bo'lib, dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shgan. Ular yaratgan ilmiy, badiiy va falsafiy meros

nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham Sharq va G'arb madaniyatining rivojida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Shu sababli turkiy xalqlar jahon madaniyati xazinasida alohida o'rin tutuvchi, o'zining boy ilmiy va badiiy an'analari bilan ajralib turadigan xalqlar qatoriga kiradi. Turkiy xalqlarning boy adabiy merosiga tegishli ayrim durdonalar hanuzgacha nafis qo'lyozma holda turli davlatlarning kutubxonalarida saqlanib kelmoqda [1].

Mana shunday nodir asarlardan biri Mahmud ibn Ali as-Saroyining “Nahjul-farodis” (“Jannatlarning ochiq yo'li”) asaridir [8].

Mazkur asar hijriy 759 (milodiy 1357-1358)-yilda yaratilgan, yozilgan joyi ma'lum emas. Hozirda asarning bir necha qo'lyozma nusxasi fanga ma'lum.

Adabiyotlar tahlili. Turkiy tillar tarixi o'zining boy yozma manbalari bilan ajralib turadi. Bu jarayonda XIV asr Xorazm yodgorliklari alohida ahamiyat kasb etadi. Xorazm yodgorliklari o'zbek tili taraqqiyotida qoraxoniylar turkiysidan

chig'atoy turkchasiga o'tish davrini ifodalashi bilan muhimdir. Mazkur yodgorliklar tili, avvalo, qoraxoniylar davri turkiysining til xususiyatlarini davom ettirgan bo'lsa-da, shu bilan birga qipchoq va o'g'uz-turkman shevalarining unsurlarini ham mujassam etgan yozma til sifatida shakllangan. Turkiy yozuv an'analari Ko'kturk davridan boshlab mustaqil bir tarmoq sifatida rivojlanib kelgan. Qoraxoniylar turkiylari bilan bir qatorda bir hududda uch asosiy til yo'nalishi taraqqiy etgan: sharqda Xorazm turkiysi va undan keyingi chig'atoy tili; g'arbda o'g'uz-turkman guruhi; shimolda esa qipchoq guruhi.

"Nahjul-farodis" Xorazm yodgorliklari orasida eng muhim asarlardan biridir. Ushbu asar qirq hadis janrida yozilgan bo'lib, to'rt bob va qirq bo'limdan iborat. Birinchi bobda Payg'ambar Muhammad sallallohu alayhi vasallamning fazilatlar va hayotlariga oid ma'lumotlar beriladi. Ikkinchi bob to'rt xalifa, ahli bayt (Fotima, Hasan, Husayn) hamda to'rt mazhab imomlariga bag'ishlangan. Uchinchi bob Allohga yaqinlashtiruvchi amallarni yoritadi. To'rtinchi bob esa insonni Allohdan uzochlashtiradigan yomon amallar haqida so'z yuritadi. Har bir bob hadis bilan boshlanadi. Hadis avval turkiy tilga tarjima qilinadi, so'ngra uning mazmunini chuqurroq yorituvchi islom ulamolari qarashlari, asarlardan parchalar hamda hikoyatlar keltiriladi. Asarning nomidan ham anglashiladiki, u yuksak badiiy maqsadlarni ko'zlamagan holda sodda va xalqchil uslubda yozilgan.

"Nahjul-farodis" asari haqida ilk ma'lumotni 1885-yilda Sh.Marjoniy bergan. Keyingi davrlarda E.N.Najip qo'lyozmalarining tarixiy xususiyatlarini tahlil qilgan, A.Zaki Validiy esa Istanbul nusxasining Xorazmda ko'chirilganini asoslaydi, bu fikrni M.F.Ko'prulzoda ham qo'llab-quvvatlagan. Y.Kamol Yalta nusxasini o'rganib, muallif kardarlik bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan. Asarning til xususiyatlari E.Fozilov tomonidan, adabiy-estetik jihatlar esa B.Yafarov tomonidan tadqiq etilgan.

1956-yilda Turk Tili Jamiyati tomonidan Istanbul nusxasining faksimil nashri Y.Ekmanning so'zboshisi bilan chop etilgan. Y.Ekman tayyorlagan transkripsiya uning vafotidan keyin, 1984-yilda S.Tezjan va H.Zulfikar tomonidan e'lon qilingan. Ushbu transkripsiya asosida Aysu Ata 1998-yilda ko'rsatkich tuzgan, xuddi shu yili Gulden Sag'ol Yuksekkaya asarning tanqidiy matnini chop etgan. So'nggi yillarda Ergun Ajar (2018–2019) asarning eski Anadolu turkcha tarjimasi, matni va indeksini nashr ettirgan. Shuningdek, A.Ubaydullo, A.Rahim, H.Tavfiq, H.Ehson, H.Ali, A.N.Samoylovich, Q.Burslan va Ali F.Qoramono'g'li singari olimlarning tadqiqotlari mavjud. Yaqin davrlarda N.Rahmonov, H.Boltaboyev va O.Jo'raboyevlar tomonidan asar adabiyotshunoslik va matnshunoslik jihatdan o'rganilgan [1]. Asar leksikasidagi tikuvchilik terminlari esa Fatma Senyuz tomonidan tadqiq etilgan [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tavsiy, struktural tahlil, retrospektiv va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Izlanish asosan diaxron aspektda bo'lib, zarur o'rinlarda sinxron aspektga ham murojaat qilindi. Ushbu tadqiqotda asarda qo'llangan kiyim-kechak nomlari va u bilan bog'liq qismlar hamda ashyolarni ifoda etuvchi maishiy leksikaga aloqador leksik birliklar tahlilga tortiladi. Asosiy e'tibor mazkur leksemalarning XIV asr eski turkiy tilida ishlatilish o'rinlari, ularning ma'no xususiyatlari hamda etimologik jihatlariga qaratildi. Shuningdek, lug'aviy birlikning ma'no taraqqiyoti natijasida uning qadimgi turkiy til, eski o'zbek adabiy tili, shu bilan birga, hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati masalalari xususida ham so'z yuritiladi.

Tahlil va natijalar. Kiyim-kechak tushunchasi tilshunoslikda muhim o'rin tutadi, chunki u insonlar o'rtasidagi munosabat va madaniy aloqalarni ifodalaydi. Kiyim nomlari tarixiy, antropologik va sotsiologik tadqiqotlar

uchun manba hisoblanadi. Ularning o'zgarishi jamiyat taraqqiyoti va turmushdagi yangiliklarni aks ettiradi. Eski turkiy tildagi kiyim-kechak nomlarining bir qismi hozirgi o'zbek tilida saqlanib qolgan, ayrimlari iste'moldan chiqqan, ba'zilar esa faqat shevalarda uchraydi. Bu so'zlar shakl, ma'no va madaniy kontekst o'rtasidagi murakkab aloqalarni mujassam etadi.

"Nahjul-farodis" leksikasida bir qancha o'z va o'zlashgan qatlamga mansub kiyim-kechak nomlari, shuningdek, u bilan bog'liq qismlar va ashyolarni ifodalovchi leksik birliklar ishlatilgan. Shunday so'zlardan biri o'z qatlamga mansub ta'rinchak atamasidir: Ul keldi ersa, men taqi ta'rinchakimni yuzumka ortum (7). Mazkur so'z asarda "ustki kiyim, choyshab, yopinchiq; yuzga tutiladigan ipak parda" ma'nosida qo'llangan. Eski o'zbek tilida esa bu ma'no bu'runchak leksemasi orqali ifoda etilgan [2]. Koshg'ariy esa Devonda bu so'zning o'g'uzcha ekanligini, "xotinlarning yengi yo'q ust kiyimi" ma'nosini ifoda etishini ta'kidlaydi [9]. Ta'rinchak atamasi hozirgi o'zbek tilida eskirgan so'z sifatida iste'moldan chiqqan.

"Ko'ylak, libos, ust-bosh" [13] ma'nosi asar matnida turkiycha ko'nlak termini bilan ifoda etilgan: Ul arada yel esti taqi ul ayalning ko'nlagini taninga yabshurdi [7]. ... ikagu taqi qizil ko'nlak keymis erdilar [7]. Mazkur so'z qadimgi turkiy tilda ham ayni shakl va ayni ma'noda qo'llangan [10]. "At-tuhfatuz zakiyya fil lug'atit turkiya"da ko'nlak// ko'nlak fonetik shakllarida keltirilgan [3]. Devonda ham Alisher Navoiy asarlarida ham ko'nlak shaklida ayni ma'noda qo'llangan [9]; O'zbek tilining etimologik lug'atida ko'ylak shaklida keltirilib, "yalang qavat yupqa kiyim" ma'nosini ifoda etishi, shuningdek, qadimgi turkiy tildagi ko'nlak fonetik shakli bugunga kelib o'zgarishga uchragani (ko'nlak > ko'ylak > ko'ylak), shevalarda esa koynak tarzida talaffuz qilinishi ta'kidlangan [12]. So'zning etimologiyasi xususida turkologiyada turli bahsli qarashlar kuzatiladi. Jumladan, ba'zi manbalarda ko'nlak turkiycha ko'gul (go'gul) o'zagiga -ak kichraytirish qo'shimchasi qo'shib hosil qilinganligi [6] ta'kidlab o'tiladi.

"Ustki kiyim" ma'nosidagi abayi so'zi asarda quyidagidek ifoda etilgan: Bu abayi turur, yarimi yibak turur taqi yarimi yib turur [7]. Mazkur so'z arabcha so'z bo'lib, "qoplamog, yopish" ma'nolarini ifoda etadi. Abaya keng yengli ustki kiyim bo'lib, odatda qora yoki to'q rangda bo'lib, yelkadan to to'piqqacha cho'zilgan, odatda butun Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada kiyiladi. Islom kiyinish qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan abayalar tanani to'liq qoplaydi. Hozirgi vaqtda ular turli xil ranglar, matolar va bezaklarda yaratilgan bo'lib, ular kundalik kiyim uchun ham kiyiladi.

Ilarsuk – asli turkiycha qatlamga mansub mazkur so'z qadimgi turkiy lug'atda "tananing qorin qismini tutib turuvchi belbog'" ma'nosida qo'llangan [10]. Mahmud Koshg'ariyda so'zning ma'nosi "ishton bog'i" deya izohlangan [9]. Q.Sodiqov ayni manbada mazkur so'zda [i] > [e] hodisasi kuzatilganini, ya'ni bu lug'aviy birlik Devonda ilarsuk > elarsuk fonetik variantlarida qo'llanganini e'tirof etadi [8]. Klouson lug'atida esa "bel kamari" (waist belt) deb ta'rif etilgan [4]. Navoiy asarlarida bu so'z kuzatilmadi. "At tuhf"da berilgan ma'lumotga ko'ra XIII – XIV asrlarda bu so'z ilarsig fonetik variantida "to'n bog'ichi" ma'nosida qo'llanishda bo'lgan [3]. "Nahjul-farodis" matnida bu so'z "ishtonbog'" ma'nosida tubandagidek ifoda etilgan: Ey za'ifa, bargil evda un tugansa ul un turgan tagarucuqi Agmasning ilarsukinga baglab yatgil [7]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu ma'no ishtonbog' so'zi orqali ifoda etiladi [16].

Bu arada izari seshildi taqi ikki elgi baglig erdi, izarini baglamaq (7) yaraqi qudrati bolmadi [7]. Mazkur jumlada kiyim-kechak nomlaridan biri izar so'zi qo'llangan bo'lib, "ishton" ma'nosini ifoda etgan. Bu so'z Devonda kuzatilmadi. Eski o'zbek adabiy tilida "ishton, lozim" ma'nosida

qo'llanishda bo'lgan [11]. Ushbu leksik birlik fors-tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, "beldan pastini yopib turadigan kiyim, lozim, ishton" ma'nosini ifoda etadi [14]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa iste'molda emas.

O'z qatlamga tegishli chapān leksemasi asar leksikasida "eski, eskirgan kiyim" ma'nosida qo'llangan: ... taqī biz Quraysh qabilaliḡ aṣrāflar taqī beglar taqī hurmātlig izzātlig kimārsālār mundaḡ chapān tonluḡlar birlā; taqī anīḡ sōzini eshitmāk tilayurbiz, chapān tonluḡlar birlā [neteg] olturaliḡ? [7] "Qadimgi turkiy lug'at"da, Devonda bu so'z kuzatilmadi. Eski o'zbek tilida chapān // chapān fonetik variantlarida "to'n, kiyim" ma'nosida qo'llanishda bo'lgan [11]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida chopon fonetik shaklida "kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan uzun milliy kiyim; to'n" ma'nosida iste'moldadir [15].

Shuningdek, asar matnida o'z va o'zlashgan qatlamga mansub bir qancha kiyim-kechakni ifodalovchi va ular bilan aloqador so'zlar qo'llangan: turkiycha ton, bash baḡī, ūch, yaqa, etāk, yeng, qur (kamar, belbog'); arabcha chrām (Ka'ba ziyoratida erkaklar kiyim o'rnida o'ranadigan yalang oq mato), zurrā'a (ustga kiyiladigan oldi ochiqko'ylak), ḡāsiya (egar ustidan yopiladigan yopinchiq), hil'at (to'n, sultonlar doirasida taqdirlash uchun hadya sifatida beriladigan qimmatbaho bezakli kiyim), imāma (salla, dastor), hulla (Jannatda kiyiladigan libos), isāba (salla), ridā (tananing yuqori qismini qoplab turadigan kiyim), zunnār (xristianlar

beliga bog'lab yuradigan chilvir, belbog'); forscha-tojikcha dastār (salla), futa (belni to'sib turuvchi mato, lo'ngi), kilim (hirqa), palās (eski hirqa, namat kiyim), zindaposh (juldur, eski kiyim) kabilar shular jumlasidandir.

Xulosa va takliflar. Tilimizdagi kiyim-kechak nomlari uzoq tarixiy ildizlarga ega bo'lib, ular jamiyat taraqqiyoti va turmushdagi o'zgarishlarga mos tarzda tilning ichki imkoniyatlari hamda tashqi o'zlashmalar hisobiga boyib borgan. Buni "Nahjul-farodis" leksikasida qo'llangan ayni ma'nodagi terminlar misolida ham kuzatish mumkin. Ularning muayyan qismi hozirgi o'zbek adabiy tilida, ayrimlari esa shevalarda qo'llanishda davom etmoqda. Biroq davr o'tishi bilan ayrim leksik birliklar arxaiklashib, faol nutqdan chiqib ketgan.

Eski turkiy til lug'at boyligidagi kiyim-kechak leksikasini qadimgi turkiy manbalar, eski o'zbek tili davri yodgorliklari, turkiy tillar, xususan, hozirgi o'zbek adabiy tili va uning shevalari bilan qiyoslash, bu sohaning tarixiy ildizlarini ochib berishga imkon yaratadi. Shuningdek, libos atamalarining shakllanishi, o'zgarishi va taraqqiyoti turkiy xalqlarning ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odatlar va maishiy an'analarini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois kiyim-kechak leksikasining qiyosiy o'rganilishi lingvistika, tarix va etnologiya fanlari kesishgan nuqtada dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida e'tirof etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Abduvaliyeva D.A. "Nahjul Farodis" is a sample of the old uzbek literary language // Web of Scietist: International Scientific Research Journal, 4(04), 939-943. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/J89TA>, In Volume 3, Issue 4 of Web of Scietist: ISSN: 2776-0979 Impact Factor: 7.565, 2023, Indoneziya. – P. 940.
2. Abduvaliyeva D.A. Turkic lexemes in the historical works of Alisher Navoi. *Academicia an International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) India* // DOI: 10.5958/2249-7137.2021.00965.4, ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 3, March 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492
3. Ат-тухфатуз закияту филлуғатит туркия (Туркий тил (кипчок тили) ҳақида ноёб туҳфа). – Тошкент: Фан, 1968. – 278-б.
4. Clauson S.G. *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*, London, Oxford University Press, 1972, 151-b.
5. Fatma Şenyüz. Nehcü'l-ferādis' teki terzilik terimleri ve bu terimlerin türkiye türkçesindeki kullanımları, *The Journal of Academic Social Science Studies, International Journal of Social Science*, Volume 2 Issue 1, p. 73-92, Summer 2009.
6. Hasan Eren. Türk dilinin etimolojik sözlüğü, 2. Baskı, Ankara, 1999. – S.512 161-b.
7. Nehjul faradis. I. Tipkibasim. Önsözün jazan Jānas Eckmann. Ankara, 1956. S. 458.
8. Sodiqov Q. "Devoni lug'atit turk" matnidagi harakat belgilari va turkiy so'zlarning o'qilishi masalasi. *Filologik tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy jurnal*. – Samarqand, 2024-yil, 2/4. 9-b.
9. Девону луғотит турк. Индекс. Тошкент: УзФан, Т. 1. 1960. – 499 б; Т. 2. 1961. – 427 б; Т. 3. 1963. – 465 б.
10. Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – 675 с.
11. Навоий асарлари луғати. Порсо Шамсиев таҳрири остида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – 782 б.
12. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б; Ўзбек тилининг этимологик луғати (Арабча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2003. – 267 б. Ўзбек тилининг этимологик луғати (Форсча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2009. – 282 б.
13. Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Том I, II. – Т., Фан, 1966 – 1971. – 652 с., – 777 с.
14. Фарҳанги таафсири забони тоҷики. I. Таҳияи сомонӣ "Фирдавси". — Душанбе, 2008. 598-, 627-b.
15. <https://izoh.uz/word/chopon>
16. <https://izoh.uz/word/ishtonbog%E2%80%98>